

**BOTIR ZOKIROV: BOLALIK ONLARI VA MILLIY ESTRADA
TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI****Valiyev Azizjon***Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti**Texnogen san’at (musiqiy ovoz rejissorligi) magistr 1- bosqich talabasi***Sultanov Xayrullo Abdullayevich***Ilmiy rahbar: Musiqiy ovoz rejissyorligi kafedrasini mudiri*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek estrada san’atining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan B. Zokirovning bolalik davri, uning ijodiy shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan oilaviy muhit hamda san’at olamiga kirib kelishining dastlabki bosqichlari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, ijodkorning dunyoqarashi, erta yoshda shakllangan musiqiy qiziqishlari va sahna madaniyatiga kirib kelish jarayonining o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Botir Zokirov, ijodiy muhit, Estrada san’ati, sahna madaniyati, bolalik tajribasi, musiqiy ijrochilik.

Аннотация: В данной статье проведён научный анализ детского периода жизни Б. Закирова одного из ярких представителей узбекского эстрадного искусства, а также рассмотрены влияние семейной среды на формирование его творческой личности и начальные этапы его вхождения в мир искусства. Кроме того, освещены особенности мировоззрения исполнителя, его раннего интереса к музыке и процесса становления сценической культуры.

Ключевые слова: Ботир Закиров, творческая среда, эстрадное искусство, сценическая культура, детский опыт, музыкальное исполнительство.

Botir Karimovich Zokirov - atoqli o‘zbek va sovet davri xonandasi, adabiyotshunos hamda XX asr o‘zbek musiqa san’atida estrada yo‘nalishining shakllanishi va taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan yirik ijodkorlardan biridir. U nafaqat professional ijrochi sifatida, balki aktyorlik, tasviriy san’at va boshqa ijodiy faoliyat yo‘nalishlarida ham samarali faoliyat olib borgan. Botir Zokirov o‘zining serqirra ijodi, sahna madaniyati va badiiy-estetik qarashlari orqali o‘zbek milliy san’atini xalqaro miqyosda targ‘ib etish va uning nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shgan. Botir Karimovich Zokirov 1936-yil 26-aprelda san’atkorlar oilasida tavallud topgan. Uning otasi Karim Zokirov va onasi Shohista Zokirova professional ijrochilar bo‘lib, oiladagi ijodiy muhit uning badiiy-estetik qarashlari hamda kelajakdagi ijodiy faoliyatining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Botir Zokirov yoshligidan san’atning turli yo‘nalishlariga katta qiziqish bildirgan hamda musiqa, teatr va tasviriy san’at sohalarida o‘z qobiliyatini namoyon eta boshlagan. Ayniqsa, bolalik davridan boshlab turli musiqiy janrlarga bo‘lgan qiziqishi uning musiqiy tafakkuri rivojida muhim omil bo‘lgan. U milliy musiqa namunalari bilan bir qatorda xorijiy musiqiy asarlarni ham tinglab, ularning ohangdorligi, ritmik tuzilishi va ijro uslublarini tahlil qilishga intilgan. Mazkur jarayon keyinchalik uning ko‘p tillarda erkin va yuqori badiiy saviyada ijro etish mahoratini shakllantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, maktab yillaridayoq turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar va sahna chiqishlarida faol ishtirok etib, ijrochilik tajribasini bosqichma-bosqich takomillashtirib borgan. Uning ijro uslubiga xos bo‘lgan ifodaviylik, emotsional ta’sirchanlik va badiiy chuqurlik keyinchalik professional faoliyatining ajralmas xususiyatlaridan biriga aylangan.

Botir Zokirov oliy ta’limni dastlab Toshkent davlat konservatoriyasining Vokal fakultetida (1952–1957), so‘ngra Toshkent davlat teatr va rassomlik san’ati institutining Rejissyorlik fakultetida (1958–1962) davom ettirgan. Ushbu ta’lim bosqichlari uning ijodiy dunyoqarashi va sahna madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

” Botir Navoiy va uning asarlari haqida bilganlarini, otasidan eshitganlarini ko‘p gapirar, doim qo‘lida shoirning biror asari bo‘lardi. Yoshligidan Majnun obraziga cheksiz muhabbat qo‘ygan va o‘n to‘rt yoshida “Majnun” deb atalgan kartina chizdi. Majnunniq siniq chehrasi, hasratli ko‘zlari yurakni ezib yuboradi. Bu kartinani Botir Zokirovning ilk “ Avtoportret’i deyish mumkin”. Anvar Maqsudov.

Botir Zokirov ijodiy faoliyatini faqat musiqa san’ati bilan cheklab qolmagan, balki adabiyot va tasviriy san’at sohalarida ham samarali ijod qilgan. Uning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi erta shakllanib, badiiy tafakkuri turli janrlarda namoyon bo‘lgan. Ijodining dastlabki bosqichlarida yaratilgan sahna va adabiy asarlar qatoriga “O‘ttiz yoshlilar”, “Yer tomiri”, “Suyanch tog‘lari” kabi dramatik asarlar kiradi. Ushbu asarlarda muallifning inson ruhiyati, ijtimoiy qarashlari hamda badiiy ifoda vositalaridan foydalanish mahorati o‘z aksini topgan. Shuningdek, Botir Zokirov tasviriy san’at yo‘nalishida ham ijod qilgan bo‘lib, rassom sifatida yaratgan dastlabki ishlari orasida “Avtoportret”, “Saraton”, “Gumbazlar”, “Bolalik ko‘chasi” kabi asarlar alohida o‘rin egallaydi. Mazkur ijod namunalari uning serqirra iste’dodi, estetik qarashlari va san’atga bo‘lgan keng qamrovli yondashuvini namoyon etadi.

Botir Zokirov adabiy va badiiy ijod bilan bir qatorda estrada san’ati rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. 1956-yilda uning tashabbusi bilan “Yoshlik” yoshlar ansambli tashkil etilib, mazkur jamoa qisqa vaqt ichida keng omma e’tirofi va mashhurlikka erishgan. Ushbu ansambl o‘zbek estrada san’atining yangi bosqichga ko‘tarilishida muhim ijodiy maydon vazifasini bajargan.

Botir Zokirovning ijrochilik mahorati, ovoz diapazoni va o‘ziga xos tembri uni san’at ixlosmandlari orasida alohida mavqega ega bo‘lishiga xizmat qilgan. Uning ijrosi tinglovchilarda kuchli emotsional ta’sir uyg‘otuvchi, samimiy va badiiy ifodaga boy xususiyatlari bilan ajralib turgan.

1957-yilda Moskvada o‘tkazilgan Xalqaro yoshlar va talabalar festivalida Botir Zokirov ilk bor “Arab tangosi” qo‘shig‘ini ijro etgan. Ushbu asarning plastinkaga yozib olinishi va keng ommalashuvi natijasida xonanda xalqaro miqyosda ham tanila boshlagan. Shuningdek, uning repertuaridan o‘rin olgan “Maftun bo‘ldim”, “Majnuntol”, “Ra‘no”, “Umid” kabi qo‘shiqlar bugungi kunda ham o‘z badiiy qadrini saqlab qolgan va tinglovchilar tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda. 1960-yillarda Botir Zokirov o‘zbek estrada ijrochiligida yangi yo‘nalishlarni shakllantirishga hissa qo‘shib, italyan, fransuz, ispan, rus va yunon tillaridagi qo‘shiqlarni sahnaga olib kirgan. Bu esa milliy estrada san’atining repertuar va ijro imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan.

1972-yilda Toshkent shahrida Sharq mintaqasidagi ilk musiqiy hall tashkil etilib, unga Botir Zokirov rahbarlik qilgan. Uning san’at rivojiga qo‘shgan xizmatlari yuksak baholanib, yoshligidayoq “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoni bilan taqdirlangan. Keyinchalik u “O‘zbekiston SSR xalq artisti” unvoni, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni hamda “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlangan. Bugungi kunda san’atkor xotirasini abadiylashtirish maqsadida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada mukofoti hamda Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti faoliyat yuritmoqda. Botir Zokirov ijodiy faoliyati davomida respublikaning turli hududlarida gastrol safarlarini amalga oshirib, milliy estrada san’atining keng ommalashishiga munosib hissa qo‘shgan.

Xulosa qilib aytganda, Botir Zokirovning bolalik yillari va san’atga qo‘ygan dastlabki qadamlari uning keyingi ijodiy shakllanishi hamda professional faoliyatining mustahkam asosini yaratgan. Yoshligidan shakllangan musiqiy did, sahna san’atiga bo‘lgan qiziqish va doimiy ijodiy izlanishlar natijasida u o‘zbek estrada san’atida o‘ziga xos ijro uslubi va badiiy maktabni shakllantirishga muvaffaq bo‘lgan. Ayniqsa, uning boy ijodiy merosi — turli janrlardagi qo‘shiqlari, sahna faoliyati va badiiy talqinlari o‘zbek milliy san’ati taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Botir Zokirovning ijodi milliy estrada san’atining mazmunan boyishi, repertuar doirasining kengayishi hamda ijrochilik madaniyatining yuksalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Botir Zokirov umrining nisbatan erta yakun topganiga qaramay, uning san’at sohasidagi faoliyati va ijodiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U 1985-yil 23-yanvar kuni vafot etgan va Toshkent shahridagi Chig‘atoy qabristoniga dafn etilgan. San’atkorning qo‘shiqlari va ijodiy merosi bugungi kunda ham tinglovchilar qalbidan munosib o‘rin egallab, xalq xotirasi va milliy madaniyat tarixida yashab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botir Zokirov. Tanlangan asarlar va xotiralar to‘plami.- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1985.
2. Karimov. N. O‘zbek Estrada san‘ati tarixi.- Toshkent: San‘at, 2008.
3. Qodirov. M. O‘zbek Estrada madaniyati rivoji.- Toshkent: Fan. 2012.
4. Rasulov. A. 20-asr o‘zbek qo‘shiqchiligi.- Toshkent: O‘zbekiston. 2005.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.- Toshkent: 2000-2005.